


INGLIZ TILINI BOSHLANG`ICH SINFLAR KESIMIDA O`QITISHDA INNOVATION METODLARDAN FOYDALANISH



Nazarova Sevara Usmonali qizi

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti

Pedagogika fakulteti Boshlang`ich talim yo`nalishi

2-bosqich talabasi

Mirzayeva Gulasal Ergashovna

Ilmiy rahbar: Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti

Filologiya fakulteti Ingliz tili fani o`qituvchisi

77 030 78 04

rahimovu204@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqola boshlang`ich sinflarda bolalarga ingliz tili tez oson o`qitishning samarali metodlari haqida atroflicha yoritilgan. Ushbu maqolada bolalarga ingliz tilini mazmunli va qiziqarli o`rgatish usullari bilan tanishishingiz mumkin.

Kalit so`zlar: boshlang`ich sinf, ingliz tili, bolalar, o`rgatish, qiziqarli, qo'shiq, harakatlar, tushuntirish, tez va oson, yosh bolalar, aqliy, jismoniy, o`qituvchi, ovozlar.metodika, pedagogik tamoyillar, ijobiy yangilanishlar,innovatsion usullar.

Kirish:

Bolalarda til o`rganishga bo`lgan tabiiy moyillik, ularda taqlid qilish xususiyati kuchli ekanligi, kattalarga qaraganda bolalar vaqtining ko`pligi buning asosiy sabablaridandir. Shuni e'tiborga olish kerakki, 6-7 yoshli bolalar ma'lumotlar ma'nosini tushunib emas, uni mexanik tarzda yodlaydi. Shuning uchun boshlang`ich sinf o`quvchilariga ingliz tilini o`rgatishni grammatik tushuncha berishdan boshlamaslik zarur. Aks holda chet tilini o`rgatishning dastlabki qadamidanoq bolani zo`riqtirib qo'yish va qiziqishini so`ndirib qo'yish mumkin. Shunday ekan, kichik yoshdagi bolalarga xorijiy tilni o`rgatish ancha mushkul va mas'uliyatli. Bolalarga ingliz tilini mazmunli va qiziqarli o`rgatish uchun quyidagi usullardan foydalanish mumkin:

- qo'shiq va she'rlar orqali tushuntirish yoki esda qolishi qiyin bo`lgan, ma'noga ega bo'lмаган harf yoki birikmalarni kuyga solib o`rgatish.

Bunga misol qilib, bolalarning ingliz tili alifbosini qo'shiq qilib o`rganishlari shunchaki yodlashdan ko`ra samarali ekanligini ko'rsatish mumkin.

- aqliy va jismoniy harakatlar bilan bo'g'liq bo`lgan o'yinlar;
- multfilmlar;

Bugungi kunda xorijiy tillarni bilish ko'nikmasi hayotimizning ajralmas qismlaridan biri bo'lib bormoqda. Turli sohalardagi mutaxassislarda chet ellik hamkorlar bilan hamkorlik qilish ko'rsatkichi yuqori bo`lganligi sababli, ularda til

o'rganishga bo'lgan talab yuqoridir. Zamonaviy jamiyatda chet tillari kasbiy ta'limning muhim tarkibiy qismiga aylanmoqda. Bunday bilimlarni insonlar dastlab maktabgacha ta'lim muassasalari va maktab keyinchalik institatlarda, o'quv kurslarida yoki mustaqil ravishda xorijiy tilni o'rganadilar. Hatto, olimlar bolalar kattalarga nisbatan tilni tez va oson o'zlashtirib olishini isbotlashgan. Bolalarda til o'rganishga bo'lgan tabiiy moyillik, ularda taqlid qilish xususiyati kuchli ekanligi, kattalarga qaraganda bolalar vaqtining til o'rganish uchun yetarliligi va o'rgangan ma'lumotlarni tez xotirada saqlashi buning asosiy sabablaridan hisoblanadi. Ingliz tilini ma'noli va qiziqarli o'rgatish uchun quyidagi innovatsion metodlardan foydalanish mumkin:

- Ko'rish yordamida xotirada eslab qolish Ma'lumki, yosh bolalar eshitgan ma'lumotlaridan ko'ra, ko'proq ko'rgan narsalarini eslab qoladi. Shunday ekan, darsni har xil ko'rgazmali qurollar, plakatlar yordamida, ko'zga ko'rindigan va kundalik hayotda ko'p foydalaniladigan narsa, buyumlarga yozish yordamida yangilug'atlarni o'rgatish va o'rgangan yangi lug'atlar ishtirokida turli gaplar tuzish.

Ingliz tili o'qitish metodikasining, umumiy (nutqiy yo'nalganlik, chegaralab va yaxlit o'rgatish, mashqlar yechish, til tajribasini e'tiborga olish), xususiy (nutq namunasi yordamida ingliz tili o'qitish, til mashqi va nutq amaliyoti bog'liqligi, nutq faoliyati turlarining o'zaro bog'liqligi, og'zaki nutqning ilgarilashi, chet tilda tabiiy nutqqa yaqinlashish, ibtidoiy bosqichni yanada takomillashtirish), maxsus (grammatikani o'rgatish, leksikani o'rgatish, o'qishni o'rgatish va ingliz tili o'rgatishda nutq yozishni qo'llash) tamoyillari ishlab chiqilgan. Biz pedagogik tamoyillarni jamlashtirishda chet tillarni boshlang'ich ta'limda o'qitishga kommunikativ yondashuvni nazarda tutdik. Maktablarda xorijiy til o'qitish metodikasi o'quv fanini o'rganish, mustaqil o'zlashtirish jarayonida ta'limning bakalavr bosqichi talabalaridan o'rtaturli gaplar tuzish. Masalan, daftar (copybook), stul (chair), doska (blackboard), ruchka (pen), oyna (window) va shu kabilarga yozish. Kundalik turmushda juda ko'p foydalanadigan ushbu narsa-buyumlar ko'zga doimo tushib turishi va har doim qo'llanishi sabab, bola bu so'zlarni ixtiyorsiz tarzda o'rganadi. Boshlang'ich sinflard chet til o'qitish metodikasi o'quv fanini o'rganish, o'zlashtirish jarayonida ta'limning bakalavr bosqichi talabalaridan o'rta umumta'lim mifik, bolalarga chet til o'qitish metodikasidan amaliy bilimlarni egallash talab qilinadi. Nazariy bilimlarni egallash bo'yicha talablar:

-Boshlangich sinflarda chet til o'qitish metodikasining maqsadi, vazifalari, predmeti, ilmiy-tadqiqot metodlari, metodik tushunchalar, vositalar, metodlar, tamoyillar, usullar, mashqlar tizimini bilish;

-til o'rganuvchilarga til materialini (talaffuz, leksika, grammatika) metodikasini tushuntirish;

Boshlang'ich ta'limda ingliz tili o'qitishning zamonaviy maqsad, mazmun va texnologiyalarini takomillashtirish, kichik mifik yoshidagi o'quvchilarga ingliz tili

o'qitish amaliyotida to'plangan an'anaviy va xorijiy tajribalarni umumlashtirishga xizmat qiluvchi o'quv qo'llanmalarning yetishmasligi oqibatida mazkur soha uchun pedagog kadrlar tayyorlash jarayonida yetaricha samaradorlikka erishilmayapti. Bugun jahon hamjamiyati o'ziga munosib o'rin egallashga intilayotgan mamlakatimiz uchun, chet ellik sheriklarimiz bilan hamjihatlikda, hamkorlikda o'z buyuk kelajagini qurayotgan xalqimiz uchun xorijiy tillarni mukammal bilishning ahamiyatini baholashning hojati yo'qdir". Ayniqsa, boshlang'ich ta'linda ijobiy o'zgarishlarga sabab bo'lgan qarorlardan biri bu O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidentining 2012-yil 10-dekabrdagi "Chet tillarini o'rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari tog'risida" PQ-1875-soni Qaroridir. Ushbu qarorga muvofiq chet tillarini, asosan, ingliz tilini boshlang'ich sinfdan boshlab o'rgatish, ularni chet tillarini o'rgatishga bo'lgan qiziqishini yanada oshirish uchun barcha umumta'lim maktablarda 1-sinfdan boshlab ingliz tili darslarini turli xil qiziqarli o'yinlar tarzida o'qitish va shu bilan birga o'quvchilarning og'zaki nutqini ham rivojlantirish, 2-sinfdan boshlab esa, alifbo, o'qish va grammatikani o'qitishni zamonaviy, innovatsion usullar orqali o'tish bosqichma-bosqich boshlandi. So'nggi paytlarda ingliz tilini o'rganadigan har qanday yoshdag'i odamlar soni juda ko'paymoqda. Buning sababi, hayot jarayonida ingliz tilini bilmasdan yashash qiyinlashib bormoqda. Ammo til o'rganish ham yosh davrlariga bog'liq. Hatto, olimlar bolalar kattalarga nisbatan tilni tez va oson o'zlashtirishni isbotlashgan. Bolalarda til o'rganishga bo'lgan tabiiy moyillik, ularda taqlid qilish xususiyati kuchli ekanligidir.

Xulosa:

Xulosa o'rnida shuni aytish joizki, maktablarda xorijiy til o'qitish metodikasi fani o'qitish jarayonida talimning an'anaviy va interfaol o'qitish usullardan ishlatiladi Amaliy mashg'ulotlar og'zaki va yozma tarzda tashkil etilishi ko'zda tutiladi.

Amaliy mashg'ulotlarni o'qitish mobaynida ilg'or pedagogik texnologiyalardan, shuningdek, ko'rgazmali slaydlarni kompyuter yordamida namoyish etish, elektron materiallarni proektor yordamida tasvirga chiqarish vositalaridan ishlatiladi. Fanning amaliy mashg'ulotlarida talimning innovatsion, interfaol metodlari, hamda ekspress-so'rovlari, aqliy hujum, ajurli arra, munozara, kichik guruhlarda ishlash, menuy, debat kabi metodlarini qo'llash nazarda tutiladi.

Foydalanilgan manba va adabiyotlar:

- 1).John Adams II Analysis of retirement age in different countries of the world.
- 2).London 2017.Тухтасинова, Н. Р. (2021). ИССЛЕДОВАНИЕ ПРЕДВАРИТЕЛЬНЫХ И ТАГМАНСКИХ СОБЫТИЙ НА РАБОТАХ АБДУЛЛЫ КАХХАР. Экономика и социум, (2-2), 240-244.
- 3)Bekmuratova U. B. "Ingliz tilini o'qitishda innovatsion texnologiyalardan foydalanish" mavzusida referat. Toshkent —2012 yil

- 4).Мухаммаджонов, Ф. М. O’rta maktab o’quvchilarining ingliz tili o’rganishda duch keladigan qiyinchiliklari
5. Muxlisa, Sobirjonova, and Qayumova Mohinur. "LINGVOKULTURALOGIYANING KELIB CHIQISH TARIXI." Евразийский журнал академических исследований 2.3 (2022): 379-383.
6. Qayumova, Mohinur Murodulayevna. "THEORETICAL-METHODOLOGICAL ANALYZE OF COSMOS AND INDIVIDUAL ON CONTEXT OF EXPERIMENTAL SCIENCE." Интернаука 28 (2018): 77-79.
7. Ergashovna M. G. TYPES OF FABRICS AND THEIR ANALYSIS //Proceedings of Scientific Conference on Multidisciplinary Studies. – 2023. – Т. 2. – №. 5. – С. 59-61.
8. Qayumova, Mohinur Murodullayevna, Muhlisa Sobirjonovna Sobirjonova, and Feruz Qurbanaliyevich Saidov. "Galileo’s influence on John Milton concept “individual”. Similarities and differences between the outlook of Galileo and John Milton." Science and Education 2.6 (2021): 494-498.